
HOKIM QABULI: MUROJAATLAR IJOBİY HAL ETILMOQDA

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayevning navbatdagi qabulida fuqarolarning ko'plab murojaatlari o'z yechimini topdi. Unda 25 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Har bir murojaat mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 10 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etilib, 2 nafar fuqaroga moddiy yordam ajratish belgilandi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 7 tasi nazoratga olindi. 5 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi.

2023-06-13 15:15:24